

RUSTAM MA'DIYEV REJISSURASIDA SAHNA NUTQINING AKTYOR IJROSIGA TA'SIRI

Xabibullo Qobilov – dotsent

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Tayanch soʻzlar: nutq, ariya, aktyor, nutq, ariya, duet, xonanda, rejissor, bastakor, harakat, kechinma, dramaturg, xarakter, xarakterlilik, plastika.

Ключевые слова: речь, ария, актер, речь, ария, дуэт, певец, режиссер, композитор, действие, опыт, драматург, характер, характер, пластика.

Key words: speech, aria, actor, speech, aria, duet, singer, director, composer, action, experience, playwright, character, character, plasticity.

Musiqali teatrdagi rejissor aktyorlar jamoasi bilan ishlar ekan, aktyor yaratayotgan obrazni tomoshabingga to'la-to'kis yetkazib berishda aktyorlik mahorati bilan birga aktyorning ravon nutqi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq va she'r ham ashulani xuddi o'zginasi, ovoz gaplashganda ham she'r o'qiganda ham dag'al emas ashuladagiday mayin, skripkadan chiquvchi tovush singari yoqimli bo'lishi kerak. Gapirganda tovushni uzliksiz davomiyligi ayrim soʻzlar va jumalarning ipga tizilgan marjondek bir xil chiqishi uchun nima qilmoq kerakligini o'ylar edim. Ba'zi ustasi farang o'quvchilar ohangdorlik uchun har xil qochirimlar ishlatib kishini g'ashiga tegadilar. Qiroat va deklamatsiyaga berilib ketadilar, men tabiiy musiqiylik tarafdoriman. Men "ha" deganda ham "a" harfining o'z ohangiga, "yo'q" deganda ham "u" harfining o'z ohangiga ega bo'lishini istayman. Qator soʻzlardagi unli tovushlarni bir-biriga bilinar - bilinmas quyilishini, oradagi undosh tovushlarni esa taqiqlanmasdan ashuladagidek mayin eshtilishini istayman. Bu tovushlarning ko'pchiligida turli ohanglar bor-ki, bu narsa ularni xarakterli xususiyatlari hisoblanadi. Mana shu harflarni barchasi qo'shiq ayta boshlaganda, nutqda musiqa hosil qiladi, shu uchun bu material ustida ishlasa arziydi". Shu tariqa Konstantin Sergeyevich Stanislavskiyning soʻz xatti-harakati ta'limotini o'rgangan, ko'p yillik aktyorlik tajribasiga ega bo'lgan Rustam Ma'diyev keyinchalik, rejissyorlik ishlarida, spektakl repetitsiyalarida soʻzga e'tibor bera boshladi. Rustam Ma'diyevda teatrga xos, yaxshi ma'nodagi "diktatura" bor edi. Zero teatr san'ati juda qattiq temir intizomni talab qiladigan san'at turi. Agar, "temir" intizom bo'lmasa, teatr san'atida rivojlanish bo'lmaydi. Odatda rejissyor ham ijodkor, ham tashkilotchi. Eng yaxshi spektakllar, har doim, yaxshi ijodkor va yaxshi tashkilotchi bo'lgan rejissyor atrofida haqiqiy aktyorlar ansambli yig'ilgan paytdagina, yuzaga kelgan. Shunday rejissyor talqiniga, ish uslubiga,

repetitsiyalar jarayoniga aktyorlar soʻzsiz bo'ysunadi va tabiiyki bu jarayonda rejissyor ixtiyoriy va ijobiy ma'nodagi "diktatorga" aylanadi. Chunki u eng to'g'ri ijodiy yo'lni belgilaydi, boshqaradi, orqasidan aktyorlarni yetaklaydi. Shuning uchun ham teatrdagi "ixtiyoriy diktatura" degan jumla ishlatiladi. Bu atama, Stanislavskiyga tegishli. Mashhur rejissyor Tovstonogov shu atama haqida juda ko'p fikrlar yozgan, ulug' aktyor Oleg Tabakov ham "diktatura" haqida ko'p gapirgan. Kuchli - ijodkor individual, ijodiy ishni uyushtirish va boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan irodali shaxsgina rejissyor bo'la oladi. Uni atrofida ansambl yig'iladi, truppa shakllanadi. Ana shu kuchli tashkilotchi rejissyor atrofida yig'ilgan truppadagina ijodiy imkoniyatlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ish jarayonida, kuchli rejissyor bilan aktyorlar o'rtasidagi muloqot va ixtiyoriy diktatura yuzaga keladi, shakllanadi. Truppaning barcha a'zolari bitta shaxs - rejissyorga soʻzsiz bo'ysunadi. Teatrdagi bu hol ixtiyoriy diktatura deb ataladi. "Ixtiyoriy diktaturani" su'istemol qilinmasligi uchun rejissyor nihoyatda nozik ta'b, madaniyatli, bilimli, kuchli notiq, kuchli insoniy hislatlarga ega bo'lgan bo'lishi kerak. Bir soʻz bilan aytganda kuchli "ijodiy shaxs" bo'lishi kerak. Agar ozgina meyor buzulsa, unga bo'ysunayotgan truppaga nisbatan muomala, munosabat o'zgarsa, agar "ixtiyoriy diktatura"dan rejissyor o'z manfaati yo'lida foydalana boshlasa, bu o'sha truppaning buzulishiga, truppani tarqab ketishiga va ijodiy jarayonga putur yetishiga sababchi bo'ladi. Shuning uchun institutimizda rejissyor tarbiyalanayotganda, uning individual hislatlariga, keng qamrovli bilimiga alohida e'tibor qaratiladi. Avval aktyorlikni, so'ngra oliy rejissyorlik kursini tamomlagan Rustam Ma'diyev o'ziga xos fikrlovchi, keng qamrovli bilimiga ega, iqtidorli va madaniyatli shaxs edi. U ko'proq aktyorning obrazdagi holati ustida ishlashga katta ahamiyat bergan, musiqiy savodli bo'lgani uchun musiqali sahnalardagi nozik jihatlarni yaxshi fahmlagan va

ularga katta e'tibor bergan. Professional rejissyorlar spektakl qo'yadilar, aktyorlar orasidan rejissyorlikka da'vo qiluvchilar, rejissyorlikka qiziqib, unda o'zini sinab ko'rishni xohlovchilar bor. Professional rejissyor tomonidan qo'yilgan spektakllar kimgadir yoqadi, kimgadir yoqmaydi, ammo u professional spektakl bo'lishi kerak. Bu nima degani? Professional spektakl badiiy yaxlit, ya'ni mukammal dramaturgiya, mukammal ssenografiya va to'laqonli aktyorlik ijrosiga, kostyumga, grimga, nur yechimiga, musikiy yechimga ega bo'lgan, har tomonlama mukammal sahna asari bo'lishi kerak. Agar mana shu aytilgan talablardan birontasi bajarilmasa yoki ijodiy talabga javob bermasa u professional spektakl bo'lolmaydi. Rustam Ma'diyev aktyor bilan ishlashda rol ijrosini o'zi ko'rsatib berishga qarshi edi, mizansahnada aktyor bilan baravar yurib, tekstni ohangigacha qaytarib beruvchi rejissyorlarni yoqtirmasdi. "Bunday ishlash, ya'ni rejissyor ijroni o'zi ko'rsatib bersa, aktyor vazifasini ham o'zi amalga oshirsa, unda spektakl faqat rejissyor talqiniga aylanib qoladi va aktyor yo'qoladi. Ammo afsuski, ko'p aktyorlar bizning institutimizni bitirganidan so'ng ham mustaqil ravishda rol ustida ishlashni bilmaydi. Kimdir ularni "tepb turishi kerak", kimdir tepasida turib yo'l ko'rsatib turishi kerak, shundagina ishlay olishadi. Bunday aktyorlarni professional aktyor deb bo'lmaydi, bundaylar "polufabrikat"lardir. Ularga faqat ko'rsatib berish kerak." - degan edi O'zbekiston xalq artisti Rustam Ma'diyev.

Hozirgi aktyorlar professionallikdan yiroqlashayapti va ularga ko'rsatib beradigan rejissyorlar ko'proq kerak bo'layapti. Rol ustida ishlash jarayonida rejissyor aktyorga berilgan shart - sharoitni yaxshilab tushuntirib tahlil qilib berishi, qayerda o'zgarish, qayerda urg'u berishni tushuntirishi va shularni kuzatib, nazorat ostida olib turishi kerak bo'layapti. Shuning uchun hozirda ko'plab rejissyorlarga ikki bora qiyin. Boshqacha so'z bilan aytganda rejissyor spektaklning dirijyori. Bundan tashqari yuqorida aytilganday rejissyor kompozitor, dirijyor, konsertmeyster, xormeyster, baletmeyster bilan ishlashni bilishi, ularning terminalogiyasi, qonun - qoidalaridan xabardor bo'lishi lozim. Lekin bularni ichida eng muhimi musiqali teatr rejissyorining musiqiy savodi bo'lishidir. Ko'plar "Rejissyorni musiqiy savodi bo'lsa bo'ldi, u bemalol ishlay oladi" deyishadi. Albatta, shunday bo'lishi nur ustiga a'lo nur, ammo rejissyor rejissura asoslarini puxta egallagan bo'lishi, u operanimi, operettanimi, musiqali dramanimi qaysi birini yaratishidan qat'iy nazar professional darajadagi spektaklni sahnalashtirishi kerak.

Rejissyor voqealar qatorini qurishi, janr nuqtai nazaridan to'g'ri talqin qilishi, uni bugungi kunga bog'lashi lozim. Rollarda ijrochilarni xarakterini asoslashga, to'g'ri yo'naltirish kerak. Teatr tajribasi shuni ko'rsatadiki, musiqali teatr o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, aktyor ijodining asosiy qonunlari, sahna san'atining barcha turlari uchun umumiydir. "San'at bilan mashg'ul bo'lgan barcha kishilar uchun ijod qonunlari bir xildir", - degan edi o'zbek teatrining mashhur rejissyori Toshxo'ja Xo'jayev.

Drama va musiqali drama teatrlaridagi aktyorlarning ijodiy faoliyati nimasi bilan umumiy? Avvalambor, bu ikki yo'nalishdagi aktyorlik san'ati doimo xatti - harakatlar san'ati ekanligi bilan umumiydir: dramatik teatrdan bu faqat psixofizik xatti-harakat bo'lsa, musiqali teatrdan esa shunga yana musiqa va ashula xatti - harakati qo'shiladi. Bu teatrlarning ildizi bir bo'lib, ular xalq ijodiyotiga borib taqaladi. Borliqni haqqoniy ifodalash tamoyili ham bir xil. Shu tamoyilni amalga oshiruvchi material - aktyor. Bu teatrlarda aktyorning saxnada yashash uslubi ham bir xil, uning asosida ma'lum maqsadga qaratilgan yagona psixofizik jarayon bo'lmish xatti - harakat mavjud. Insonning qalb kechinmalarini ochish yo'li ham bir xil bo'lib, bu xatti - harakatli tahlildan iboratdir. Bularning barchasi aktyor ijodining qonunlari bo'lib, hamma sahna san'atlari uchun bir xil va o'ziga xos deyishimizga imkon beradi. Bu qonunlar Konstantin Sergeyevich Stanislavskiyning drama va musiqali teatrlarga bag'ishlangan to'plamlarida bayon qilingan. Musiqali spektaklning sahnaviy xatti - harakati, musiqali, ashulali sahnaviy xatti - harakatdir. Bu musiqali spektaklda aktyorlik ijodining eng ko'p daqiqalari, musiqa bilan oldindan belgilab qo'yilgan. "Musiqachilar, ashulachilar, raqqosalar - baxtli odamlar, chunki ularda temporitm muammosi oldindan hal qilingan. Musiqa bizga tuyg'ularni bildiradi, lekin aktyor shu joyda bizga tuyg'ular mantig'ini ochib beradi, uning yordamida xatti - harakat mantig'i topiladi va mana shu xatti - harakatlarni bajara borib, biz ijod paytida, musiqa bergan tuyg'ularga qaytamiz" [1.B.27.] - degan edi Konstantin Sergeyevich Stanislavskiy.

"Musiqani tinglab va unga singdirilgan tuyg'ular mantig'ini anglab uni o'zining sahnaviy xatti - harakatiga aylantira bilish, musiqali teatr aktyori ijodidagi spetsifik xususiyatlardan biri" [2.] deb, ta'kidlagan edi Rustam Ma'diyev.

Musiqa belgilab bergan xatti - harakatning vaqt qonunlariga bo'ysundirilganligi - musiqali teatr aktyori ijodidagi yana bir muhim spetsifik xususiyatidir. Musiqa bilan bog'lanmagan drama

teatrining aktyori, pyesa jarayonida u yoki bu vazifani bajarar ekan, turli xil moslanishlardan foydalangan holda, xilma - xil xatti - harakatlarni mantiqan, ketma - ket va maqsadga muvofiq amalga oshirishi mumkin. Bunda aktyorga meyor tuyg'usidan boshqa hech narsa, shu xatti - harakatlarni tanlashni va ularni qay muddatda bajarishni, chegaralab qo'ymaydi.

Xuddi shu vazifani bajarayotgan musiqali teatr aktyori oldida, bastakor belgilagan vaqt davomida, nafaqat o'z xatti-harakatlarini bajarish, balki baholash va qabul qilish jarayonlari turadi. Bu birinchidan, ikkinchidan esa, har qanday baholash, musiqiy dramaturgiyaning belgisi bo'lib, uni bajarishi zarur. Musiqali teatrning qonuni, aktyorning o'z xatti-harakatlarini musiqa usuliga bo'ysundirishi bilan birga, har bir musiqiy fikrga yangi xatti - harakatlarni topishi bilan ifodalanadi. Ko'pincha musiqa, o'zining o'lgangan vaqti bilan aktyorga ma'lum miqdordagi xatti - harakatlarni bajarishga va ularni aynan shu musiqa tempo - ritmiga joylashtirishga imkon berayotganday bo'ladi. Lekin musiqaning emotsional - ma'noli mazmuni aktyorga faqat chegaralangan miqdorda xatti-harakatlarni bajarishga imkon beradi. Bu musiqali

teatr aktyorining spektakl voqealari davomida kerakli xatti-harakatlarni va ayniqsa, moslashuvlarni chertib - chertib tanlashga, ularning orasidan eng zarurlarini qoldirishga, majbur qiladi. Bu bilan saxnaviy xatti-harakatlarni detallashtirishdan qo'rqmaydigan dramatik teatr obrazlariga nisbatan, musiqali teatrda ashulaviy timsollar ancha ixcham va umumlashganligini tushuntirish mumkin. Musiqali - ashulali xatti-harakatning asosiy spetsifik xususiyati shundan iborat. Rustam Ma'diyev aktyorlar bilan ishlash jarayonida yuqorida aytilgan fikrlarga tayanar va ana shu hislatlarni o'zida yaxshi mujassam qilgan rejissyor edi. O'zgalardan ajralib turadigan yutuqli tomonlari ariya, duetlar ustida ishlashga ustaligi bo'lgan. Nutq aktyor ijrosida jiddiy ahamiyatga ega. Uning sahnadagi ariya va duetlar ijrosida, tasvirlangan voqeani, personajning ichki dunyosini, uning hissiyotlarini to'g'ri ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Nutqni o'rganish, tahlil qilish va unga e'tibor qaratish aktyorning san'ati rivojida o'zgaras rol o'ynaydi. Saxna san'atida nutq nafaqat bir vosita, balki aktyorning ichki dunyosini va tashqi ifodasini birlashtiruvchi kuchdir.

Foydalanilgan adabiyot

1. Kristi G.K. S.Stanislavskiyning opera teatridagi ishi. -M.: Искусство, 1967.

REZYUME. Ushbu maqolada Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali teatri rejissyori Rustam Ma'diyevning ijodiy faoliyati tahlil etiladi. Shuningdek, uning aktyorlar nutqi bilan ishlash metodikasi, aktyorlarga qo'yiladigan talablar, ariya va duet ijro etuvchi aktyorlarning kasbiy mahorati mezonlari yoritiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируется творческая деятельность режиссера Узбекского государственного музыкального театра имени Мукими Рустама Мадьева. Также освещаются его методика работы с актерской речью, требования, предъявляемые к актерам, и критерии профессионального мастерства актеров, исполняющих арии и дуэты.

SUMMARY. This article analyzes the creative activity of Rustam Madiyev, director of the Mukimi Uzbek State Musical Theater. It also highlights his methodology of working with actor's speech, the requirements placed on actors, and the criteria for the professional skill of actors performing arias and duets.

AKTYORLIQ SHEBERLIKTE DIQQATTIN ORNI

Qudaybergenov Alibek Amandiq uli – oqitwshi

Ózbekistan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat instituti Nókis filiali

Tayanch so'zlar: diqqat, san'at, aktyor, teatr, ritm, ijod, rejissor.

Ключевые слова: внимание, искусство, актёр, театр, ритм, творчество, режиссёр.

Key words: focus, art, actor, theater, rhythm, creativity, director.

Ustaz aktyorlar tárepinen jaratilgan saxnaliq obrazlar dañqin esitip, olar atqargan spektakllerdı kórip, radiospektakllerdı tınlap, televideniye arqalı kórsetiletugın film hám spektakllér tásirinde

“aktyor bolaman” degen ármanlar menen dóretiwshilik álemine kirip kiyatırǵan jaslar dóretiwshiligin – “erkin jumısın” úyreniw de aktual ilimiy másele bolıp tabıladı. “Ómir saxna,